



JINOYATLARNI OCHISHDA QO'L-BARMOQ IZLARI AHAMIYATI VA ULARNING IDENTIFIKATSIYASI.

Matirzayeva Shukurjon Jumaboy qizi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 328-guruh kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qo'l-barmoq izlari tarixi va ularni aniqlovchi soha daktiloskopiya ekspertizasi haqida hamda qo'l-barmoq izlarining umumiy va xususiy belgilari va shu belgilar orqali jinoyat sodir etgan shaxslarning shaxsini identifikatsiya qilish, qo'l-barmoq izlarining papilyar naqshlari, qo'l-barmoq izlarini olishda ishlatiladigan kukunlar va ularning turlari haqida ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Qo'l-barmoq izlari, iz, daktiloskopiya ekspertizasi, identifikatsiya, kukun, umumiy va xususiy belgi, papilyar naqshlar.*

“Bugungi kunda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilayotgani, sohada o'z burchi va qasamyodiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar xodimlar soni ko'payib borayotganini islohotlarimizning eng muhim natijasi sifatida qabul qilamiz. Hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan ana shunday o'tkir, kechiktirib bo'lmas talablardan kelib chiqqan holda, ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun asosiy vazifalarga alohida e'tibor qaratishimiz lozim: ichki ishlar organlari uchun intellektual va professional bilim darajasi, ma'naviy-axloqiy saviyasi yuqori bo'lgan kadrlar tayyorlash bo'yicha sifat jihatidan yangi tizimni joriy etish, ichki ishlar organlarini, ayniqsa, profilaktika, jinoyat qidiruv, tergov, yo'l-patrul va patrul-post xizmati hamda ekspert-kriminalistika bo'linmalarini zamonaviy texnika, axborot kommunikatsiya tizimlari va maxsus vositalar bilan ta'minlashni yanada kuchaytirish hamda rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini chuqur o'rgangan holda, amaliy faoliyatga yangicha ish uslublari va mexanizmlarini, xususan, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish”.

Uilyam Hershel XIX asrning oxirlarida Buyuk Britaniyaning Hindistondagi ma'muriyatida xizmat qilardi. U maosh olish uchun keladigan askarlar soni yildan yilga ko'payib borayotganligiga hayron bo'ladi. Bu hodisaning tagiga hech yetolmasdi. Chunki yuz ko'rinishiga qarab hindlarni farqlay olmasdi. Mahalliy aholi vakillari esa bundan ustalik bilan foydalanishar — bir kuni o'zlari oylik olishsa, ertasi kuni maosh olgani biror qarindoshini jo'natishardi. Buning ustiga ularning aksariyati savodsiz edi. Oxiri toqati toq bo'lgan Hershel ulardan ro'yxatdagi o'z familiyasining to'g'risiga va to'lov qog'oziga barmoq izlarini qoldirishni talab qildi. Sinchiklab qarasa, bir odamning barmoq izi boshqasini kiga o'xshamas edi. Shundan so'ng anatomiya darsliklarini varaqlab, o'zining kashfiyotini barmoqdagi papilyar chiziqlar yordamida asosladi. Pul to'lash borasidagi muammoni hal etgach, oradan biroz vaqt o'tib, Bengaliyadagi qamoqxonada tartib o'rnatishga kirishdi.



Gap shundaki, sodir etgan og'ir jinoyatlari uchun bu yerda jazo o'tagan ayrim mahkumlar ozodlikka chiqqach, o'zlarini ijtimoiy xavfli bo'lmagan jinoyatlari uchun jazo o'tib chiqqan kishidek ko'rsatishardi. Hershelning ko'rsatmasiga ko'ra, mahkumlar ro'yxatiga ularning barmoq izlari ilova qilingach, bunday hollarga butunlay chek qo'yildi. Kaft chiziqlari va qo'l-barmoq izlarining naqshini o'ziga xos xususiyatlarini bunday keng tatbiq etilishi o'z o'rnida qo'l-barmoq izlari haqidagi ta'limotni ya'ni daktiloskopiyani rivojlanishiga turtki bo'ldi. "Daktiloskopiya" atamasi (grekcha daktylos – barmoq va skopeo – ko'raman, kuzataman) ilk marta argentinalik publitsist doktor Fransisk Latsin tomonidan, birinchi daktiloskopik tasniflash tizimining muallifi Xuan Vuchetich (1858–1925) ishlatgan "iknafalangometriya" atamasi o'rniga qo'llanilgan. Qo'l barmoq izlari haqidagi ta'limotni yaratilishining muqaddimasida italiyalik biolog Marchello Malpigi (1628–1694) va taniqli Chex biologi Yan Evangelist Purkinye (1787–1869)lar turganlar. Yana bir mashhur fransuz kriminalisti E.Lokar asoslangan holda M.Malpigini "daktiloskopiyaning bobosi" va Ya.E.Purkinyeni "daktiloskopiyaning otasi" deb atagan edi. Daktiloskopiyaning keyingi rivojlanishiga V.Gershel, G.Folds, F.Galton va Edvar Genri kabi olimlar o'ziga xos hissa qo'shganlar. Angliyada 1895-yildan boshlab daktiloskopiya, jinoyatchilarni hisobga olish usuli sifatida qo'llanila boshladi. 1918-yilning 5-oktabrida IIXK (NKVD) jinoyat qidiruvni tashkil etish bo'yicha Nizom qabul qiladi. Ushbu tashkil etilgan tashkilot – Qidiruv markazi tomonidan amalga oshirilgan ilk tadbirlardan biri jinoyatchilarni markazlashgan tarzda hisobini yuritishdan iborat bo'ldi. Shuning uchun 1918-yil 10-oktabrda Qidiruv markazi mahalliy militsiya bo'limlariga jinoyatchilarning fotosuratlar va daktilokartalari hamda qidiruvdagi shaxslarning ro'yxatini taqdim etishni tavsiya etdi. 1918-yil 30-oktabrda ushlangan jinoyatchilarning fotosuratlar va daktiloskopik izlarini olish qoidalari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, krimi-nalis-tik muzeyni tashkil qilish ishlari olib borildi. 1919-yil fevral oyida Qidiruv markazida ro'yxatga olish va daktiloskopik byuroning sud ekspertiza xonasi tashkil etildi va 1919-yil 1-martdan ushbu muassasa o'z faoliyatini boshladi.

Daktiloskopik ekspertizalarda, juda uzoq vaqt davomida, xususiy belgilarning atamaları va yagona tizimi mavjud bo'lmagan. Sobiq Sho'ro davrida chop etilgan birinchi kriminalistika dars-ligi-da papillyar naqshlarning 10 ta xususiy belgisi ko'rsatilgan:

- 1) papillyar chiziqlarning boshlanishi;
- 2) papillyar chiziqlarning tugashi;
- 3) uzilish;
- 4) qo'shilish;
- 5) to'qnashish;
- 6) ilmoq;
- 7) ko'zcha;
- 8) parcha (bo'lak);



9) ko'prikcha;

10) nuqta.

Hozirgi zamon kriminalistikasi daktiloskopiyani trasologiyaning qo'lbarmaq va kaft terisining papillyar naqshlarining xususiyati va tavsifini, ularni aniqlashni usullari va vositalarini, tasvirlash, aks ettirish, kriminalistik hisobga olish hamda shaxsni identifikatsiya qilish maqsadida voqea joyida uni aks ettirish kabilarni bayon etuvchi bir qismi sifatida o'rganadi. Papillyar naqshlarning markazida joylashgan papillyar chiziqning suratlari (naqshlari) barmoq falangalari suratlarining tuzilishi bo'yicha quyidagi uch turga bo'linadi:

- ✓ *Yoysimon,*
- ✓ *Sirtmoqsimon*
- ✓ *Aylnasimon.*

Eng ko'p tarqalgan naqsh sirtmoqsimon papillyar naqsh bo'lib, barcha naqshlarning taxminan – 65%ni tashkil etadi, aylnasimon naqshlar – 30%ni, yoysimon naqshlar esa 5%ni tashkil etadi.





Yoysimon naqshlar papillyar chiziqlarning ikki oqimi bilan hosil qilinib, ushbu oqimlarning biri – ingichka (quyi) oqim falangalararo qatlamda joylashadi va ko‘ndalang yo‘nalishda barmoq yostiqchasini kesib o‘tadi, ikkinchi (yuqori) oqim barmoq yostiqchasi tomondan boshlanadi, yuqoriga qarab yoysimon



Sirtmoqsimon papillyar naqshlar – suratning markazida sirtmoq shaklida egiladigan uchta, papillyar chiziqlardan hosil bo‘ladi. Sirtmoqlar, ularning miqdoridan kelib chiqib, har doim papillyar chiziqlarning uchinchi, ichki oqimini tashkil qiladi va buning natijasida sirtmoqsimon naqshlarda deltalar hosil bo‘ladi.



Aylnasimon naqshlar – o‘zining ichki suratiga ko‘ra eng murakkab turdagi papilyar naqsh hisoblanadi. Ushbu turdagi papilyar naqshlarga ichki surati doira, oval, spiral, sirtmoq, bir-birini aylanib o‘tuvchi yoki sirtmoqlar, doiralar va spirallar birlashmalaridan iborat bo‘lgan naqshlar kiradi.

Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni ochish va tergov qilish bo‘yicha asosiy vazifalaridan biri ilmiy metodlar va texnik vositalarni jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotiga tatbiq etish hisoblanadi. Ushbu vosita va metodlar orasida kriminalistika-ning, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va qidirishni yanada samaraliroq bo‘lishiga imkon beradigan yutuqlari muhim o‘rin tutadi. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy mahoratining va ular tomonidan jinoyatlarni ochishning ilmiy metodlarini egallash malakalarining o‘sishi, jinoyatchini fosh qilish uchun turli izlar va ashyoviy dalillar, jumladan hodisa sodir bo‘lgan joylarni ko‘zdan kechirishda aniqlanadigan qo‘l barmoq izlaridan unumli foydalanish holatlarini ortishiga olib keladi. Qo‘l barmoq izlari muhim qidiruv materiali hisoblanadi. Ular yordamida jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinuvchi shaxslarni aniqlash va tekshirishga yo‘naltirilgan bir qator tadbirlar majmuasini amalga oshirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil
2. 25 oktyabr — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlari kuni bilan tabrigi. <https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlari-xodimlari-va-faxriylariga>.
3. Daktiloskopik ekspertiza: Darslik / A.D.Xusanov, S.A.Nurumbetova, T.V.Solovyeva, Sh.T.Djumanov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022.
4. Kun.uz Daktiloskopiya tarixi 2019.02.11
5. Daktiloskopiya darslik.
6. Daktiloskopiya o‘quv qo‘llanma.

